XALQ DEPUTATLARI SHOVOT TUMANI KENGASHI
QAROR

2023 - yil 29 - dekabr VI-81-201-12-177-K/23 Shovot tuman hokimligi

Shovot tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda*) O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, O‘zbeksiton Respublikasi Budjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-76-190-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-01-38/1683-sonli xatini inobatga olib xalq deputatlari Shovot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-76-190-12-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni (*keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi*) hamda Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-76-190-12-0-K/23-sonli qaroriga Shovot tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 113 886,0 mln. so‘m, xarajatlari 204 884,0 mln. so‘m prognoz qilinganligi hamda Respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 90 958,0 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini

taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy budjeti bilan viloyat mahalliy budjeti va Respublika budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024-yil uchun yuqori turuvchi budjetdan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 818,0 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (bundan tuman budjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. Tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yilda Xalq deputatlari tuman Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi

deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining tuman aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) Xorazm viloyatining viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlari va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imi, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

d) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari tuman budjeti hamda viloyat budjeti

o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

11. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman va viloyat mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Choraklar yakunlari bo‘yicha ushbu qonunning 1-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmagan taqdirda, tuman hokimligi viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish bilan birga tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan so‘rov bilan murojaat qiladi hamda mazkur taklif viloyat hokimligi tomonidan ushbu qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Bunda tuman mahalliy budjetining tegishli chorakdagi mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli mavjud bo‘lmagan budjet daromadlari turlarining prognoz ko‘rsatkichlari aniqlashtiriladi hamda ushbu summa boshqa daromad manbalari yoki viloyat budjeti hisobidan qoplanadi.

Quyidagilar tegishlicha viloyat budjeti va tuman budjetidan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, tumanlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

Sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar.

Quyidagilar viloyat budjetidan moliyalashtiriladi:

tumanning umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, sog‘liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta‘mirlash va jihozlash, shuningdek, sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash hamda ta’mirlash ishlariga doir xarajatlar;

kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

12. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Saidov), tuman iqtisodiyot va

moliya bo‘limi (U.Babajanov), tuman Soliq inspeksiyasi (I.Sultonov) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman Soliq inspeksiyasi (I.Sultonov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman Soliq inspeksiyasi (I.Sultonov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (X.Ro‘zmetov) 2024-yil uchun yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas

mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (M.Masharipov) tuman Soliq inspeksiyasi (I.Sultonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov), Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi viloyat hududiy boshqarmasi (U.Qalandarov)ga:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov), tuman Soliq inspeksiyasi (I.Sultonov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Babajanov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarning 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

18. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining tuman bo‘limi boshlig‘i, tuman hokimligi bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarning budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. Chapqirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza tuman bo‘limi (A.Pirmetov) va tuman Soliq inspeksiyasi (I.Sultonov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda

sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olinishini ta’minlasin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (Q.Sabirov), tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi katta inspektori (Z.Yo‘ldoshov), hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

21. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya va Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etishi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

22. Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga

qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

23. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Saidov), Xalq deputatlari tumani Kengashi kotibiyati, tuman hokimliklari, tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

25. Tuman hokimligining axborot xizmati bo‘limi (S.Yo‘ldoshev) tuman hokimligi bosh yuriskonsulti bilan hamkorlikda (M.Saidov);

mazkur qarorni tuman hokimligining shovottuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

Shovot tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Babajanov) bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun mohiyatini aholiga tushintirish ishlarini olib borsinlar.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi G.Do‘sova zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Shovot tumani Kengashi deputati, sessiya raisi **U.Ruzmetov**

Xalq deputatlari Shovot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-201-12-177-K/23-son qaroriga
1-ilova

Shovot tumanining tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Jami
1	Foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	12 325 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	33 582 000
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 132 000
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	14 134 000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 308 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 041 000
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	13 752 000
9	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	14 693 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	64 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 734 000
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	
13	Davlat boji	
14	Yig‘imlar	
15	Jarimalar	
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	121 000
17	Davlat mulki obyektlarini sotishdan tushumlar	
JAMI		**113 886 000**

Xalq deputatlari Shovot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-201-12-177-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun tuman budjetidan mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	Jami
	Xarajatlar - jami	**204 844 046**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**132 013 968**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	36 031 093
	- maktabgacha ta’lim	20 205 202
	- umumiy ta’lim	15 825 891
	- kadrlar tayyorlash	
1.2	Sog‘liqni saqlash	87 396 052
	shundan: Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga transfertlar	
1.3	Madaniyat	2 516 287
1.4	Sport	5 939 908
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	18 400
1.6	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	112 228
2	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**23 998 162**
	shu jumladan:	
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
2.2	Obodonlashtirish	13 215 259
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 638 243
2.4	Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari	321 597
2.5	Veterinariya qo‘mitasi	2 958 263
2.6	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 864 800
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**25 784 478**
4	**Zahira jamg‘armasi**	**1 817 966**
5	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**21 229 472**
	shu jumladan:	
5.1	*Tashabbusli budjet tadbirlari*	*21 229 472*

Xalq deputatlari Shovot tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-201-12-177-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Shovot tumani mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

№	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Shovot tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Shovot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-201-12-177-K/23-son qaroriga
4-ilova

Shovot tumani mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad*	Xarajat
Shovot tumani	113 886 000,0	204 844 046,0

*tamaki, alkogol mahsulotalri, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni hisobga olmagan holda

Xalq deputatlari Shovot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-201-12-177-K/23-son qaroriga
5-ilova

Shovot tumani mahalliy budjetining 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratilgan mablaglar**
1	Shovot tumani	90 958 046,0	30 530 003,0

*tamaki, alkogol mahsulotalri, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

Xalq deputatlari Shovot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-201-12-177-K/23-son qaroriga
6-ilova

Shovot tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

№	Shahar va tumanlar	Miqdor
1	Shovot tumani	921 000,0